



**O'ZBEK ADABIYOTI DURDONALARI RUSIYZABON SHOIR  
FAYNBERG TALQINIDA**

**Ibrohimova Marhabo Ulug'bek qizi**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili 3-fakulteti

marhaboibrohimova008@gmail.com

**ARTICLE INFO**

Qabul qilindi: 10-fevral 2023 yil

Ma'qullandi: 16-fevral 2023 yil

Nashr qilindi: 23-fevral 2023 yil

**KEY WORDS**

Milliy uyg'onish, faylasufona, sharqona.

**ABSTRACT**

*Ushbu maqola tajriba mahoratida tengsiz, xalqaro tajribaga ega va doim o'zbek ijodkorlari bilan yelkama yelka xizmat qilgan shoir Faynberg hayoti va ijodi haqida ma'lumot beradi.*

Milliy uyg'onish, millatning o'zligini anglash jarayoni mazkur davr adabiyotining ruhi va mazmunini tashkil qiladi. Millatning o'zligini anglash asos qilib olingan bu uyg'onish davri bolalar adabiyoti va matbuoti uchun ham poydevor bo'loldi.

Nodir iste'dod va tug'ma iqtidor sohibi Faynberg — yirik faylasuf shoir, mohir nosir sifatida mashhur. U o'zbek adabiyoti xazinasiga ulkan hissa qo'shgan. Aleksandr Faynberg o'zbek adabiyotining faxri, xalqimizning iftixoridir.

Aleksandr Faynberg she'riyati lirik tuyg'ularga, chuqur hissiyot tasviriga, yangi va k o 'lam dor fikrlarga, falsafiy-badiiy umumlashmalarga boy. Aleksandr Faynberg o'z uslubiga, o'z ovozi va o'z soziga ega boigan, she'riyatda ajoyib maktab yaratgan ulkan san'atkordir. She'r yozish zamonni mag'rur kuylash, ona Vatanni va xalqimizni faxrlanib ulug'lash, do'stlik va tinchlik ishiga sadoqatni falsafiy misralarda tarannum etish demakdir. M a'lumki, badiiy asarda personaj nutqi singari muallif nutqi ham aniq va obrazli bo'lishi, milliy tarovat bilan bezangan, davr ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi shart. Asarda qaysi davr hayoti tasvirlangan bo'lsa, o'sha davr kishilari nutqidagi til xususiyatlari ham aks etishi kerak. Bu jihatdan «Navoiy» romanining tili ibratlidir. Oybekshunos shoir Faynberg to 'g'ri qayd qilganidek: «Navoiy» romani o 'zbek tarixiy romanchiligi tilining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Asar tili o'tmish davrning jonli tilini yaratish namunalaridan biri b o 'lib qoldi, unda besh yuz yil avval yashagan tarixiy qahramonlarning tili hozirgi kitobxonlarga tushunarli qilib qayta tiriltirildi. Faynberg roman tili oldida turgan bu murakkab vazifani to'g'ri hal qildi. Yozuvchining muvaffaqiyati shunda bo'ldiki, u qahramonlar nutqi bilan muallif nutqi o'rtasiga keskin chegara qo'ymadi va tarixiy hamda zamonaviy nutqni bir-biriga uyg'unlashtirdi. U shaxslarning so'zlashuvida Navoiy asridagi adabiy til koloritini saqlash, ayrim grammatik va morfologik formalarni stillashtirish bilan birga, ularni o'zbek adabiy tilining hozirgi taraqqiy bosqichiga xos asosiy qoidalarga bo'ysundirdi, mumkin qadar hozirgi zamon kitobxonining tushunishiga yaqinlashtirdi. Asarda zavod hayoti va ishchi-injenerlarning mehnat faoliyati haqida to 'g'ri tasavvur beruvchi jonli va qiziqarli lavhalar anchagina. Lekin qissada

yo'zuvchining zavod hayotini, ishchi va injener-texniklar turmushini yaxshi bilmasligi bilan bog'liq bo'lgan ba'zi nuqsonlar ham uchraydi. Unda, ayrim sahifalarda sxematizmga, yuzakchilikka, bayonchilikka yo'l qo'yilgan. Romanda qishloq ahlining turmush tarzi, fe'l-atvori, urfodati, ularning o'zaro ahilligi, milliy qadriyatlari, samimiy munosabatlari, bir-biriga ko'maklashishi, bir-biriga beminnat xizmat qilishi yaqqol tasvirlangan. Bitta misol. Tasodifan falokat natijasida bir cho'ponning qo'rasi kuyib, ko'p qo'ylari nobud bo'ladi. Bundan xabar topgan Suyun Burgut boshliq Marjontov ahli tezda hamqishlog'iga yordamga yetib keladi, katta zarar ko'rib dovdirab qolgan cho'ponning xo'jaligini tiklashda jonbozlik ko'rsatadi. Biri qo'y, biri qo'zi berib, hamqishlog'ining og'irini yengil qiladi. Yoki, desantchilarning adolatsizligi va zulmi tufayli Suyun Burgut boshiga kulfat tushganda butun qishloq ahli qattiq iztirob chekadi. Hech kim hamqishlog'ining fojiasiga befarq qaramaydi. Shoir she'rlari sujeti va mundarijasiga erk va tenglik, fidoyilik va manguilik, haqiqat va to'g'rilik, samimiylik va sadoqat, riyokorlik va xiyonat haqidagi afsonalar va rivoyatlar ustalik bilan singdirib yuborilgan va ular asar g'oyaviy mazmunini ochishga bo'ysundirilgan. Darhaqiqat, mustaqillik, ozodlik, tenglik, adolat va haqiqat uchun kurash masalalari «Ruhlar isyoni» dostonining asosiy g'oyaviy mazmunini tashkil etadi. Professor U. Normatov doston haqida: «Xilma-xil she'riy shakllar, ritm, hissiy ohang va ranglar, ham real hayotiy lavhalar, ham rivoyatlar, shartli-ramziy ifodalar birikmasidan tashkil topgan. Shu xildagi shakl va ifoda rang-barangligi asar zamirida yotgan hayotiy haqiqatni butun i murakkabligi, xilmaxil qirralari bilan ifoda etishga xizmat qiladi. Shuningdek ushbu asarlar tarjimai bilan aynan Faynberg shug'ullangani ko'ngilni shod qiladi, albatta. Akademik Izzat Sultonov shoir ijodini teran tahlil etib: «A. Oripov she'riyatining eng muhim xususiyati odamlarni birlashtiruvchi kuch-qudratdir. Bu — haqiqiy she'riyatning eng ulug' fazilatidir»,— degan xulosaga kelgan edi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov esa: «Abdulla Oripov she'riyatiga nisbatan tashbeh qo'llaydigan bo'lsak, u dutor navosiga o'xshaydi: birda cheksiz mung bilan dillarni larzaga keltirsa, birda sho'xchan tus oladi, mayin va o'ziga xos taronasi tag'in kishini maftun etadi. Uning asarlari qon tomirida o't bilan suvdek bir-biriga zid tuyg'ular tinimsiz oqib turadi. Shuning uchun ham bir she'ri hayotning yetuk falsafiy idroki hosilasi bilan to'yingan, boshqa bir she'ri esa dardu g'amga to'liq, nolali va ruhsiz, bir she'ri sho'xchan, qochirimli va yumorga boy, boshqa bir she'ri esa saxovatli qalb mehriga to'liq, shuning uchun ham u betakror, hayotning o'ziday murakkab, hayotning o'ziday so'lim va jozibali, yuraklarga yaqin. Faynberg ijodiga jahondagi boshqa mualliflar yozuvchilari va olimlari ham yuksak baho berganlar. Mashhur bolqor shoiri Qaysin Quliyev o'tgan asrning 60-yillaridayoq: «Faynberg she'riyatida men fikrning salmoqdorligini, obrazlarning ohorli, quymaligini, o'quvchini zeriktiruvchi tor mu a'noli «qizil so'zlik»dan xolilikni ko'rdim. Yosh shoir so'zning ifoda kuchini bexato sezadi, hayotni o'z bo'lishicha, uni o'ziga xos yangi nazar bilan ko'radi. O'zbek she'riyatini yangi, katta iste'dod bilan qutlasa bo'ladi», — deb ta'kidlagan edi. Aleksandr Faynberg ijodiga Chingiz Aytmatov kabi ulug'lar ham tegishli tarzda yuqori baho berganlar. Chingiz Aytmatov: «Shoirning so'zlaridan zamondoshlari ham, kelgusi avlodlari ham faxrlanib yuradilar», — deb yozgan edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <http://library.navoiy-uni.uz/files/mirzayev%20s.%20xx%20asr%20o'zbek%20adabiyoti.pdf>
2. [http://iht.uz/download/slides/2kurs/literature/adabiyot/015\\_mavzu\\_XIX\\_asrning\\_II\\_yarmi\\_XX\\_asr\\_boshi\\_o%E2%80%98zbek\\_adabiyoti.pdf](http://iht.uz/download/slides/2kurs/literature/adabiyot/015_mavzu_XIX_asrning_II_yarmi_XX_asr_boshi_o%E2%80%98zbek_adabiyoti.pdf)